ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

ANIQ VA TABIIY FANLAR SERIYASI

Matematika, Mexanika, Informatika
Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

№ 1/1 (143)
2024

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2024-yil, 1-son (143/1) **ANIQ VA TABIY FANLAR SERIYASI**

Matematika, Mexanika, Informatika, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

SH.A.ALIMOV	- O‘zFA akademigi	**M.X.ASHUROV**	- O‘zFA akademigi
S.N.LAKAYEV	- O‘zFA akademigi (SamDU)	**B.J.AXMEDOV**	- O‘zFA akademigi
A.G.YAGOLA	- Moskva davlat universiteti professori (Rossiya)	**A.A.ZAXIDOV**	-Texas Nanotexnologiya instituti professori (AQSh)
ALBERTO DEL BIMBO	- Florensiya universiteti professori (Italiya)	**N.B. FERAPONTOV**	- Moskva davlat universiteti professori (Rossiya)
SH.TUGIZOV	- Kaliforniya universiteti professori (AQSh)	**K.G.TOKHADZE**	- Sankt Peterburg davlat universiteti professori (Rossiya)
A.S.SOLEEV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)	**N.F.BUNKIN**	- Moskva davlat texnika universiteti professori (Rossiya)
I.A.IKROMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)	**HAJI AKBER AISA**	-Xinjiang tibbiyot universiteti professori (Xitoy)
B.X.XO‘JAYAROV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)	**E. A. ABDURAXMONOV**	- k.f.d., professor (SamDU)
X.X.XUDOYNAZAROV	- t.f.d., professor (SamDU)	**N. K. MUXAMADIYEV**	- k.f.d., professor (SamDU)
L.SABIROV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)	**L. A. BULAVIN**	- Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
A.JUMABOYEV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)	**X. Q. XAYDAROV**	- b.f.d., professor (SamDU)
X.BOZOROV	- k.f.d., professor (SamDU)	**Z. I. IZZATULLAYEV**	- b.f.d., professor (SamDU)
O.Q.QUVONDIQOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)	**Sh. T. XOLIQULOV**	- g.f.d., professor (SamDU)
A.SH.YARMUXAMEDOV	- f.-m.f.n., (SamDU)	**S. B. ABBOSOV**	- g.f.d., professor (SamDU)
D.B.XURSANOV	- g.f.f.d., dotsent (SamDU)	**X.S.XAYDAROV**	-f-m.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/ page
1	Режимы стохастики в некоторых моделях теплопроводости и самоорганизации при периодических возмущениях. **Солеев А.С., Розет И.Г., Мухтаров Я.**	Modes of stochastics modes in some models of thermal conductivity and self-organization under periodic perturbations. **Soleev A.S, Rozet I.G, Mukhtarov Ya.**	**5-11**
2	Kichik molekulali donor asosidagi organik quyosh elementlar faol qatlamining strukturaviy xususiyatlari. **Kuvondikov V.O., Zaxidov E.A., Nematov Sh.K., Saparbayev A.A., Shuguang W., Turg‘unboyev A.Y.**	Structural characteristics of the active layer of organic solar cells based on small molecular donors. **Kuvondikov V.O., Zakhidov E.A., Nematov Sh.K., Saparbaev A.A., Shuguang W., Turgunbaev A.Y.**	**12-17**
3	Sintezlangan ikki o‘lchamli MoTe2 maydoniy effektli tranzistorining optik-elektrik xususiyatlari. **Saidov K., Ruzimuradov O.**	Enhanced opto-electrical characteristics of the synthesized two-dimensional MoTe2 field-effect-transistor. **Saidov K., Ruzimuradov O.**	**18-22**
4	Bir bosqichli sovutish mashinalarning sovutuvchi agentlarini hisoblash, ularni tahlil qilish va kompressorning haqiqiy sovutish quvvatini aniqlash. **Norqulov J., Ibodullayev M., Yo‘lliyev Sh., Xonto‘rayev S., Azimov R.**	Calculation of refrigerant agents of single-stage refrigeration machines, their analysis and determination of the actual cooling capacity of the compressor. **Norkulov J., Ibodullayev M., Yulliyev Sh., Khonturayev S., Azimov R.**	**23-30**
5	Manba ta’siri va o‘zgaruvchan zichlikka ega divergent diffuziya jarayonini ifodalovchi parabolik tenglama uchun Koshi masalasining yechimlari sifat xossalari. **Djabbarov O.R, Karimov M.M., Zaripova A.R, Nizomiddinova G.**	Qualitative properties of solutions of the Cauchy problem for the parabolic equation representing the divergent diffusion process with source effects and variable density. **Djabbarov O.R, Karimov M.M., Zaripova A.R, Nizomiddinova G.**	**31-36**
6	Ускорении итерационных процессов при решении уравнения дирака. **Абдуназаров Р.**	Efficient iterative method for solving the dirac equation. **Abdunazarov R.**	**37-43**
7	Qo‘shimcha hadli kompleks modiftsrlangan Korteveg-de Friz tenglamasini integrallash. **Mannonov G., Kuyanbayeva K., Bulakova F.**	Integration of a Nonlinear Complex Modified Korteweg–De Vries Equation with Additional Terms. **Mannonov G., Kuyanbayeva K., Bulakova F.**	**44-53**
8	Краевая задача для уравнения смешанного параболо-эллиптико-гиперболического типа с оператором Герасимова-Капуто в прямоугольной области. **Исломов Б.И., Убайдуллаев У.Ш.**	Boundary value problem for an equation of mixed parabolic-elliptic-hyperbolic type with the Gerasimov-Caputo operator in a rectangular domain. **Islomov B.I., Ubaydullayev U.Sh.**	**54-60**
9	Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi oykonimlarning tarixiy o‘zgaruvchanligi va turg‘unligini baholash. **Baltabayev O.O.**	Evaluation of the historical variability and stability of oikonym in the territory of the Republic of Karakalpakstan. **Baltabayev O.O.**	**61-67**

10	Рамановская спектрометрия и рентгенофлуоресцентный анализ в исследованиях древней настенной живописи Центральной Азии. **Шаронов И.А., Алибеков А.С., Джумабоев А., Иванов А.К., Реутова М.А., Холикулов У.А.**	Raman spectrometry and X-ray fluorescence analysis in studies of ancient wall paintings of Central Asia. **Sharonov I.A., Alibekov A.S., Djumaboyev A., Ivanov A.K., Reutova M.A., Kholikulov U.A.**	**68-75**
11	Panjaradagi ikki-bozonli sistema hamiltonianining bog‘langan holatlari mavjudligi. **Azizova M.A.**	The existence of bound states of the hamiltonian of a system of two identical bosons on the two-dimensional lattice. **Azizova M.A.**	**76-81**
12	Aholining hududiy tashkil etilishini tadqiq etish usullari. **Abduvaliyev X., Ahmadaliyev Y.**	Methods for studying the territorial organization of the population. **Abduvaliyev Kh., Ahmadaliyev Y.**	**82-87**
13	Zarafshon daryosining fraktal o‘lchovini kublar usulida aniqlash. **Saidkulov E., Mirsaidov B., Xaqberdiyev S.**	Determining the fractal dimension of the zarafshan river by the cube method. **Saidkulov E., Mirsaidov B., Khakberdiyev S.**	**88-96**
14	Murakkab holatdagi biologik populyatsiya jarayonlari uchun sifat xossalari. **Mamatov A.U.**	Qualitative properties for complex biological population processes. **Mamatov A.U.**	**97-102**
15	O‘ziga o‘xshash fraktal tuzilmalarni geometrik modellashtirish. **Jabbarov J.S., Mukhtorov D.N., Mustaffaqulov M.A., Baxromov A.B.**	Geometric modeling of self-similar fractal structures. **Jabbarov J.S., Mukhtorov D.N., Mustaffakulov M.A., Bakhromov A.B.**	**103-110**
16	Oksikislotalar asosida rezorbsiyalanuvchan biotibbiy materiallar olish. **Muzaffarova B.B., Xudaynazarov J.O., Erkinov M.Sh., Qo‘chqorova D.B., Sayfullayev Q.A., Tillaev S.U**.	Obtaining resorbible biomedical materials based on oxyacids. **Muzaffarova B.B., Khudaynazarov J.O., Erkinov M.Sh., Kuchqorova D.B., Sayfullayev Q.A., Tillaev S.U**.	**111-116**
17	O‘zbekistonda shahar aholi manzilgohlarining joylashishi va rivojlanishi. **Usmonov A.U.**	Location and development of urban settlement in Uzbekistan. **Usmonov A.U.**	**117-122**
18	ZnO/SiO_2 nanokompozit yupqa plyonkalarning zol-gel sintezi. **Usmonova H.I., Uzoqov J.R., Muxamadiyev A.N., Muxamadiyev N.Q.**	Zol-gel synthesis of thin films of ZnO/SiO2 nanocomposite. **Usmonova H.I., Uzoqov J.R., Mukhamadiyev A.N., Mukhamadiyev N.K.**	**123-128**
19	Yuqori asosli katalitik sistemada atsetilen diollari sintezi. **Otamuxamedova G.Q., Ziyadullayev O.E., Bo‘riyev F.X., Boytemirov O.E., Ablakulov L.Q.**	Synthesis of acetylene diols in a high basic catalytic system. **Otamuxamedova G.Q., Ziyadullayev O.E., Bo‘riyev F.X., Boytemirov O.E., Ablakulov L.Q.**	**129-136**

UDK: 911.372.2(575.172)

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDAGI OYKONIMLARNING TARIXIY O‘ZGARUVCHANLIGI VA TURG‘UNLIGINI BAHOLASH

O.O.Baltabayev

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Qoraqalpog‘iston

O.O.Baltabayev Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Qoraqalpog‘iston
E-mail: baltabaev.omirbay@karsu.uz

Kelib tushgan: 08.02.2024
Ko‘rib chiqildi: 24.02.2024
Qabul qilindi: 28.02.2024
Nashr qilindi: 18.03.2024

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi oykonimlarining tarixiy turg‘unligi va o‘zgaruvchanligi o‘rganilgan. Respublika oykonimlari shakllanish davri tarixiy manbalar asosida uch davrga bo‘lib tahlil qilingan. Shuningdek, oykonimlarning paydo bo‘lish davri tumanlar kesimida o‘rganilib hududiy tafovutlari aniqlangan va mavzuli xaritasi tuzilgan.

Kalit so‘zlar: Toponim, oykonim, tarixiy davr, oykonimik tizim, Mustaqillik davri.

Оценка исторической изменчивости и устойчивости ойконимов на территории Республики Каракалпакстан

Аннотация. В статье изучена историческая изменчивость и устойчивость ойконимов Республики Каракалпакстан. Ойконимы республики на основе исторических источников были разделены на три хронологических группы, исходя из времени своего формирования. Вместе с тем, выявлены порайонные особенности хронологической структуры ойконимии и составлена тематическая карта соответствующего содержания.

Ключевые слова: Топоним, ойконим, исторический период, ойконимическая система, период Независимости.

Evaluation of the historical variability and stability of oikonym in the territory of the Republic of Karakalpakstan

Abstract. The article examines the historical stability and variability of the oikonyms of the Republic of Karakalpakstan. The formation period of republican oikonyms is divided into three periods based on historical sources. Moreover, the period of appearance of oikonyms was studied in the districts, territorial differences were determined and a thematic map was made.

Keywords: Toponym, oikonym, historical period, oikonymic system, period of Independence.

Kirish. Geografik nom, ba’zan joy nomi yoki toponim deb ham ataladi. Toponimlar yer yuzasidagi barcha tabiiy va sun’iy ob’ektlarning nomlarini o‘z ichiga oladi. Geografik nomlar butun dunyoda uchraydi. Ular odatda ma’lum bir tilda paydo bo‘ladi va shu tilda so‘zlashuvchi xalqlarning lingvistik va madaniy merosining bir qismidir. Odamlar o‘zlarining mahalliy geografik nomlari bilan faxrlanishadi, chunki bu nomlar ularning tarixini, milliy xarakterini va qiyofasini o‘zida aks ettiradi. Nomlar nozik elementlardir, chunki ko‘pincha qandaydir mamlakat bosib olingan yoki mustamlaka qilinganida yoki siyosiy hokimiyat o‘zgarganda, nomlar o‘zgartirilishi kerak bo‘lgan birinchi narsalar qatorida turadi. Toponimlarning paydo bo‘lishi,

o‘zgarishi yoki qayta nomlanishi jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liqdir. Bunda jamiyat hayoti va taraqqiyotida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o‘zgarishlar toponimiyaning o‘zgarishiga ham olib kelishi mumkin. Buni asosan geografik nomlarning o‘zgarishida ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi oykonimlar (1151 ta nom)ning shakllanish davri va ularning hududiy xususiyatlarini aniqlashda ham ko‘ramiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Oykonimlarning tarixiy o‘zgarishlari va turg‘unligini baholash mamlakatimiz geografik tadqiqotlarida birmuncha kam o‘rganilgan. Chet elda xususan Singapur davlati toponimlarining o‘zgarishi Brenda S.A. Yeoh [12], Yom S.J. va Cavallaro F [20], Ruminiya xususan Buxarest ko‘cha nomlarining o‘zgarishi Light D [14;15], Palonen E [17], Armaniston joy nomlarining o‘zgarishi Saparov A [19], Qozog‘iston toponimlari xususan Olmaota ko‘cha nomlarining o‘zgarishi Mehmet Volkan Kaşikçi [16] tadqiqotlarida o‘rganilgan. Rus geografiya jamiyati tomonidan 2020-yilda so‘nggi 100 yillikda, ya’ni XX-XXI asrlarda sobiq ittifoq hududidagi davlatlarda poytaxt, viloyat va tuman markazlari nomlarining turg‘unligi va o‘zgarganligiga oid maxsus toponimik xaritalardan iborat mavzuli atlas [11] tuzilib, nashrdan chiqarilgan. Bu atlasda, xususan, O‘zbekiston hududidagi ayrim o‘zgaruvchan oykonimlar haqida ham ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada aholi punktlariga oid Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining va Xalq deputatlari tuman Kengashlari qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fond materiallari, shuningdek, toponimik tadqiqotlar olib borgan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlaridan foydalanilgan. Shuningdek, tarixiy, qiyoslash, statistik, kartografik va hududiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ob’ektlar, jumladan, viloyat, tuman yoki katta-kichik aholi punktlari jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan alohida ajralib turadi. Bunday geografik ob’ektlar har qancha katta bo‘lmasin, tabiiy-geografik ob’ektlarga nisbatan o‘zining aniq belgilangan chegaralari bilan farq qiladi [13]. Toponimist olim Q.M.Hakimovning yozishicha, “… Har bir geografik ob’ektning o‘z nomi bor, u joyni biron xususiyatini yoki ob’ekt bilan bog‘liq tarixiy voqea-hodisalarni o‘zida mujassam etgan oddiy so‘z bilan joyning ittifoqi hisoblanadi. Binobarin, geografik nomlar “o‘lik” so‘zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab sirlarni asrayotgan ma’naviy xazinadir” [13].

Mutaxassislar toponimlarni paydo bo‘lishiga qarab ikki turga bo‘lishgan: tabiiy yo‘l bilan, xalq tomonidan qo‘yilgan nomlar va rasmiy-ma’muriy tarzda qo‘yilgan nomlar. Rasmiy-ma’muriy tarzda berilgan har qanday nom ham o‘z tarixiga ega va shu davrning ehtiyoji bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Geografik nomlarda o‘lkaning ko‘pgina tabiiy xususiyatlari, aholining xo‘jalik faoliyati, jamiyatdagi ko‘p asrlar davomida sodir bo‘lgan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar ham o‘z aksini topadi [13].

O‘zbekiston, xususan, Qoraqalpog‘iston hududida XX va XXI asrlar davomida aholi punktlarining nomlanishida keskin o‘zgarishlar ro‘y bergan. Jumladan, sobiq ittifoq davrida, ayniqsa, 1920-1950 yillarda siyosiy arboblar nomlari shahar, shaharcha va qishloqlarga ko‘p qo‘yilgan. Keyinchalik, 1960-yillarda I.V.Stalin davriga va shaxsiga rasmiy qarashlar o‘zgargandan so‘ng, butun Sovet ittifoqidagidek, *Stalin, Molotov, Kaganovich, Malenkov* kabi nomlar o‘zgartirildi.

Umuman olganda, sho‘rolar davrida paydo bo‘lgan geografik nomlar aksari inqilob dohiylari, sho‘ro davlati va kommunistik partiyaning rahbarlarining nomlaridan iborat mafkuraviy nomlar edi. Mustaqillik yillarida “qizil” toponimlar bekor qilinib, joylarning tarixiy nomlari tiklandi va sof xalqona toponimlar paydo bo‘ldi [18].

Mustaqillik davrida sobiq ittifoq mafkurasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p aholi punktlari nomlarining yo tarixiy shaklini qayta tiklash yoki sobiq ittifoq davrida asos solingan aholi qo‘rg‘oni bo‘lsa, mafkuraviy jihatdan yangi sharoitga mos keladigan, mahalliy xalqlarning taniqli arboblari bilan bog‘liq ravishda qayta nomlangan. Ayniqsa, 1990-2000 yillar oralig‘ida mamlakatimizda, shu jumladan, Qoraqalpog‘istonda ham geografik nomlarni qayta nomlash bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 1992-yil 9-apreldagi №92/XII-sonli, 1992-yil 19-maydagi №109/XII-sonli, 1992-yil 19-maydagi №110/XII-sonli, 1992-yil 10-avgustdagi №145/XII-sonli, 1992-yil 10-avgustdagi №146/XII-sonli, 1992-yil 10-avgustdagi №147/XII-sonli, 1992-yil 25-avgustdagi №153/XII-sonli, 1993-yil 9-yanvardagi

№215/XII-sonli, 1993-yil 23-martdagi №253/XII-sonli, 1993-yil 14-oktyabrdagi №356/XII-sonli, 1994-yil 20-yanvardagi №409/XII-sonli, 1995-yil 20-fevraldagi №31/I-sonli, 1995-yil 10-noyabrdagi №135/1-sonli, 1996-yil 24-maydagi №184/I-sonli qaror va farmonlari asosida ko‘plab tumanlarning aholi punktlari qayta nomlangan.

Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining 1996-yil 26-dekabrdagi №44/6-sonli qarori, Beruniy tumani hokimi huzuridagi atamalar komissiyasining 1992-yil 8-iyuldagi №1-sonli, 1996-yil 27-maydagi 194/5-sonli, 1996-yil 16-dekabrdagi №593/12-sonli, 1998-yil 19-fevraldagi №55/02-sonli, 1998-yil 26-sentyabrdagi №410/09-sonli va 1998-yil 15-dekabrdagi №593/12-sonli qarorlari, Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashining 1994-yil 18-martdagi №189/3-sonli qarori, Xalq deputatlari Qanliko‘l tumani Kengashining 1992-yil 5-fevraldagi №36/02-sonli va 1998-yil 19-martdagi №63/03-sonli qarorlari, Xalq deputatlari Mo‘ynoq tumani Kengashining 1996-yil 29-yanvardagi №34-sonli va 1998-yil 17-martdagi №03-60-sonli qarorlari, Xalq deputatlari Nukus tumani Kengashining 1996-yil 10-iyuldagi №226-sonli, 1997-yil 24-iyundagi №263-sonli qarorlari, Xalq deputatlari Taxtako‘pir tumani Kengashining 1996-yil 28-avgustdagi №448/08-sonli qarori, Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining 1996-yil 6-maydagi №138-sonli, 1997-yil 27-fevraldagi №85-sonli va 1998-yil 31-dekabrdagi №793-sonli qarorlari, Xalq deputatlari Xo‘jayli tumani Kengashining 1996-yil 3-maydagi №18-sonli, 1996-yil 26-iyuldagi №36/6-1-sonli, 1997-yil va 1998-yil 7-fevraldagi 62/13-3-sonli qarorlari, Xalq deputatlari Shumanay tumani Kengashining 1994-yil 31-martdagi №121/3-sonli va 1995-yil 10-iyundagi №21/6-sonli qarorlari asosida tumanlardagi ko‘plab aholi punktlari nomlari qayta nomlangan.

Natijada, hozirgi kunga kelib Qoraqalpog‘iston hududidagi oykonimlarni kuzatadigan bo‘lsak, ular orasida uchta tarixiy davrga mansub joy nomlarini ko‘rishimiz mumkin. Bular sovet davridan oldin paydo bo‘lgan (xususan, Mustaqillik yillarida qayta tiklangan), sovet davrida paydo bo‘lgan va Mustaqillik yillarida shakllangan nomlar. Shu nuqtai nazardan tadqiqot jarayonida har bir tuman va natijada butun Qoraqalpog‘iston Respublikasi oykonimiyasini xronologik jihatdan tarkibini ko‘rish vazifa tariqasida qo‘yildi. Bu orqali oykonimlarning tarixiy-madaniy qadriyati, ahamiyati ko‘rib chiqildi va ma’lum ma’noda tahlil qilindi. Chunki oykonim qanchalik eski bo‘lsa, shunchalik uning tarixiy-madaniy qadri baland bo‘ladi, uning joy ramzi, hududning madaniy merosi, milliy qadriyat elementi sifatidagi ahamiyati yuqori bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi aholi punktlarining nomlari shakllangan vaqti hamda o‘zgartirish tarixini o‘rganishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivining №R-12-fond (Исполнительный комитет Амударьинского отдела совет рабочих дехканских и солдатских депутатов г. Петро-Александровск), №P-28-fond (Статистический подотдел при Земельном отделе Исполнительного Комитета Амударьинского отдела Совета рабочих, солдатских и дехканских депутатов г. Петро-Александровск), №P-63-fond (Плановая комиссия при областном исполнительном комитете Советов Каракалпакской Автономной области), №P-156-fond (Статистическое управление Республики Каракалпакстан), №P-229-fond (Президиум Верховного Совета КК АССР), №M-500-fond (Совет Министров Республики Каракалпакстан), №P-551-fond (Каракалпакский Обком Коммунистический партии Узбекистана), №M-576-fond (Жокаргы Кенгес Республики Каракалпакстан) materiallari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi kutubxonasi arxivi fondida saqlanayotgan R-999, R-1000, R-1006, R-1008, R-1012, R-1033, R-1035, R-1069, R-1072, R-1079, R-1087, R-1153 raqamli dala qo‘lyozmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Rayosatining va Xalq deputatlari tuman Kengashlari Qarorlari, Qoraqalpoq folklorining 77-87 jild ma’lumotlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma’lumotlari, tumanlar pasportlari, shuningdek, Butun Ittifoq aholi va aholi punkti ro‘yxati materiallari (1926 y.) [1; 3; 4; 8;9], rayonlashtirish bo‘yicha ma’lumotlardan [5;6; 10] foydalanildi.

Ushbu tadqiqotda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi aholi manzilgohlarining nomlari 2021-yil 1-yanvar holati bo‘yicha ma’muriy-hududiy bo‘linish masalalariga oid Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumi hamda Xalq deputatlari tuman Kengashlarining Qarorlari asosida olingan. Ushbu rasmiy hujjatlarga binoan respublikada 1-yanvar 2021-yil holatiga ko‘ra 12 ta shahar, 26 ta shaharcha va 1113 ta qishloq aholi punkti, ya’ni jami 1151 ta aholi punkti mavjud bo‘lgan [2]. Natijada hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud

bo‘lgan har bir aholi punkti nomi qaysi tarixiy davrda shakllanganligi aniqlandi. O‘rganish natijalari 1-jadval hamda 1-rasmdagi maxsus xaritada keltirilgan.

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot jarayonida hisobga olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha mavjud bo‘lgan 1151 ta aholi punkti nomlaridan 644 tasi (56% i) sovet davridan oldin shakllangan (shulardan 75 tasi oldingi yillarda o‘zgargan bo‘lib, so‘nggi vaqtda tarixiy ko‘rinishida qayta tiklangan), 189 tasi (16,4% i) sovet davrida vujudga kelgan, 318 tasi (27,6% i) esa Mustaqillik yillarida shakllangan. Ammo respublikaning turli qismlarida oykonimiyaning xronologik tarkibi o‘zaro farq qiladi.

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi oykonimlarining shakllanish davri bo‘yicha taqsimlanishi

№	Ma’muriy-hududiy birliklar	Jami oykonimlar	Sovet davridan oldin shakllangan (shu jumladan, Mustaqillik davrida qayta tiklangan)		Sovet davrida shakllangan		Mustaqillik davrida shakllangan	
			soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %
1.	Nukus sh.	2	2	100 %	-	-	-	-
2.	Amudaryo	129	93	72,1 %	8	6,2 %	28	21,7 %
3.	Beruniy	71	19	26,8 %	10	14,1 %	42	59,1 %
4.	Bo‘zatov	26	19	73,1 %	4	15,4 %	3	11,5 %
5.	Ellikqal’a	92	29	31,5 %	17	18,5 %	46	50 %
6.	Kegeyli	132	105	79,55 %	23	17,4 %	4	3,05 %
7.	Mo‘ynoq	22	18	81,8 %	4	18,2 %	-	-
8.	Nukus t.	40	32	80 %	3	7,5 %	5	12,5 %
9.	Qanliko‘l	39	21	53,85 %	12	30,75 %	6	15,4 %
10.	Qorao‘zak	97	70	72,2 %	10	10,3 %	17	17,5 %
11.	Qo‘ng‘irot	48	20	41,7 %	12	25 %	16	33,3 %
12.	Taxiatosh	32	20	62,5 %	8	25 %	4	12,5 %
13.	Taxtako‘pir	40	31	77,5 %	6	15 %	3	7,5 %
14.	To‘rtko‘l	92	22	23,9 %	15	16,3 %	55	59,8 %
15.	Xo‘jayli	64	32	50 %	15	23,4 %	17	26,6 %
16.	Shumanay	105	22	20,95 %	18	17,15 %	65	61,9 %
17.	Chimboy	120	89	74,2 %	24	20 %	7	5,8 %
Qoraqalpog‘iston Respublikasi		**1151**	**644**	**56 %**	**189**	**16,4 %**	**318**	**27,6 %**

Jadval muallif tomonidan bajarilgan o‘rganishlar asosida shakllantirilgan

Xususan, Amudaryo, Bo‘zatov, Kegeyli, Mo‘ynoq, Nukus, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Chimboy kabi tumanlarda sovet davridan oldin paydo bo‘lgan oykonimlar jami aholi punktlari nomlarining 70 foizidan ortiqroq qismini tashkil qiladi. Demak, respublika shimoliy va shimoli-sharqiy qismlarining hududiy oykonimik tizimlari nisbatan turg‘un xususiyatga ega. Bu borada, ayniqsa respublikaning shimolidagi tumanlar (Bo‘zatov, Mo‘ynoq, Taxtako‘pir) hamda Nukus tumani diqqatga sazovor. Respublikaning janubiy hududlaridan bu toifaga faqat Amudaryo tumani kiradi.



1-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari oykonimlarining shakllanish davri bo‘yicha taqsimlanish xaritasi

Xarita muallif tomonidan tuzilgan

Lekin, ta’kidlash joizki, bu tumanlardagi aholi punktlarining katta qismiga mustaqillik yillarida asl nomlari qaytadan qo‘yilgan. Masalan, Xalq deputatlari Taxtako‘pir tumani Kengashining 1996-yil 28-avgustdagi №488/08-sonli qarorida *Partizan* nomi *Bessarıawıl*, *Oktyabr* nomi *Múytenawıl*, *Qızıl bayraq* nomi *Sarıko‘l*, *8-mart* nomi *Dáwqara*, *M.Gorkiy* nomi *Qarabaylı*, *Parts’ezd* nomi *O‘rkendi*, *Dimitrov* nomi *Qońıratko‘l*, *Sarı altın* nomi *Taxtako‘pir*, *Ordjinikidze* nomi *Pishenko‘l* singari tarixiy nomlarining tiklanganliklarini ko‘ramiz. Xalq deputatlari Nukus tumani Kengashining 1997-yil 24-iyundagi №263-sonli qarorida *Kuybishev* nomi *Uzınko‘l*, *Salıkesh* nomi *Shortanbay*, *Pobeda* nomi *Aqterek*, *Qızıl ásker* nomi *Shaǵalko‘pir*, *Rossiya* nomi *Kerder* singari tarixiy nomlar tiklanganligini ko‘ramiz.

Shu vaqtning o‘zida respublika janubida joylashgan Beruniy, Ellikqal’a va To‘rtko‘l tumanlari hamda Shumanay tumanining hududiy oykonimik tizimlarida nomlarning asosiy qismi (yarmidan ko‘pi) eng yangi davr nomlaridan iborat. Bu esa ushbu tumanlar yerlarining o‘zlashtirish tarixi bilan belgilanadi. Sovet davrida yangi yer massivlarini o‘zlashtirish jarayonida ko‘plab yangi aholi punktlari barpo etilgan va ularga sovet mafkurasi ruhidagi nomlar qo‘yilgan. Shu bois Beruniy, Ellikqal’a, To‘rtko‘l va Shumanay, tumanlaridagi ko‘plab oykonimlar mustaqillik yillarida hukumat qarorlari asosida o‘zgartirilgan.

Masalan, Beruniy tumani hokimi huzuridagi atamalar komissiyasining 1992-yil 8-iyuldagi №1-sonli qarori asosida *Kirov* nomi *Botambosh*, *Doslik* nomi *Xirliqal’a*, *Menjinskiy* nomi *Bo‘lish*, *Chapaev* nomi *Nurota qulonchi*, *Dustlik* nomi *Qoratoba*, *Lenin* nomi *Ko‘shkinbay*, *Kalinin* nomi *Nurmanbay*, *Sotsializm* nomi *Sariko‘l*, *K.Marks* nomi *Saroyko‘l* nomlariga qayta tiklanganligi, *Kalinin* nomi *Qurbog‘*, *Pravda* nomi *Eshon*, *Telman* nomi *Guliston*, *Internatsional* nomi *Madaniyat*, *Lenin* nomi *Tozabog‘*, *50 let Oktyabrya* nomi *Paxtakor*, *M.Gorkiy* nomi *Tozanur*,

Kommuna nomi *Obod, Voroshilov* nomi *Shayimbet oba, Chkalov* nomi *Mehnatkash, Dimitrov* nomi *Namuna, Komsomol* nomi *Yoshlik, Kuybishev* nomi *Tinchlik, Kommunizm* nomi *Alman, XXV Parts'ezd* nomi *Bo'zovul, Budyonniy* nomi *Qahramon, Kirov* nomi *Muqimiy, Kommunizm* nomi *Olg'abos, Jdanov* nomi *Yangiobod* nomlariga o'zgartirilgan.

O'z navbatida, Qanliko'l, Qo'ng'irot, Taxiatosh va Xo'jayli tumanlaridagi oykonimlarning paydo bo'lish davri nisbatan ko'proq sovet davridan oldin paydo bo'lgan bo'lsa ham, sovet va mustaqillik davrida paydo bo'lgan nomlar hududiy oykonimik tizimlarida katta o'rin tutganligini ko'rish mumkin.

So'nggi o'n yilliklarda amalga oshirilgan aholi punktlarini qayta nomlash jarayonini o'rganganimizda, respublika aholi punktlarining nomlarida birxilliklarga yo'l qo'yilganligi ko'zga tashlanadi. Xususan, Beruniy, Ellikqal'a va Kegeyli tumanlarida *Xalqobod* oykonimi, Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l tumanlarida *Paxtaobod* nomi, Amudaryo, To'rtko'l va Shumanay tumanlarida *Dehqonobod* oykonimi, Amudaryo, Taxiatosh va To'rtko'l tumanlarida *Ozodlik* joy nomi, Qanliko'l, To'rtko'l, Xo'jayli tumanlarida *Jayxun* oykonimi, Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarida *Yangiobod, Yangiyer* nomlarining takrorlanganligi kuzatiladi.

Bu joyda toponimning asosiy vazifasi muayyan geografik ob'ektni shunga o'xshash ob'ektlardan ajratib ko'rsatishdan iboratligini ta'kidlash maqsadga muvofiq. V.A.Nikonov geografik nomlarning bu xususiyatini manzillilik (manzilni belgilovchi) funksiyasi deb atagan. Toponim geografik ob'ektni alohida ajratib ko'rsatadi va manzilini aniqlash imkonini beradi [13]. Shunday ekan, aholi punkti nomlarining bir tumanda yoki yaqin joylashgan bir nechta tumanda takroriy ravishda uchrashi toponimning manzillilik funksiyasini bajarishga qiyinchilik tug'diradi.

Toponimlarning uzoq vaqt davomida o'zgarmasdan qo'llanib kelishining o'ziga xos shartlari mavjud. Bunday shartlarning asosiysi har qanday ob'ektga nom berishda uning geografik xususiyatlarini e'tiborga olishdir. Bunday xususiyatlar sirasiga ob'ektning geografik o'rni, joyning relefi, iqlimi, suvlari, tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan teng asosda ishlab chiqarish va aholi ko'rsatkichlari kiradi. Yuqoridagi geografik xususiyatlar ob'ektning siyosiy-tarixiy va antropo-etnologik xususiyatlariga nisbatan kam o'zgaruvchanligi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar ta'siriga tushmasligi bilan ajralib turadi [7].

Aholi maskanlari nomlari orasida juda katta qismni g'oyaviy-siyosiy nomlar tashkil etsa ham geografik tamoyillar asosida yaratilgan toponimlar bir qancha afzalliklarga ega ekanligini ta'kidlash mumkin. Birinchidan, bu nomlar jamiyatda tez-tez o'zgartirilmaydi, uzoq vaqt saqlanib turadi, mablag'larning tejalishiga yordam beradi; ikkinchidan, joyning hozirgi kunda o'zgarib, unutilib ketgan tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlari, dastlabki landshafti haqida qimmatli ma'lumot beradi; uchinchidan, joy nomlarining bosh vazifasi – manzilni aniqlab berish funktsiyasini to'la bajarishga imkon yaratadi, sababi nomlashda ko'cha yoki mahalladagi asosiy, o'ziga xos tabiiy yoki iqtisodiy-ijtimoiy ob'ektga mo'ljal olinib, toponimning darakchilik xususiyati namoyon etiladi [7].

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi barcha oykonimlar qamrab olingan holda oykonimiyaning xronologik tarkibi aniq miqdoriy asosda o'rganilmagan va bu jihatdan respublika oykonimiyasida mavjud hududiy tafovutlar aniqlanmagan. O'zida turli xil axborotlarni saqlayotgan tarixiy-madaniy meros sifatida qaraladigan sovet davridan oldin shakllangan oykonimlar Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi bo'yicha tumanlar kesimida turli darajada tarqalganligi ma'lum bo'ldi. Xususan, Amudaryo, Bo'zatov, Kegeyli, Qorao'zak, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir va Chimboy kabi tumanlarda sovet davridan oldin shakllangan oykonimlar jami oykonimlarning 70 foizidan ortiqroq qismini tashkil qilgan bo'lsa, Beruniy, Ellikqal'a, To'rtko'l va Shumanay tumanlari oykonimiyasining shakllanishi esa yerlarning o'zlashtirish tarixi bilan belgilangan bo'lib, asosan, sovet davrida yangi yer massivlarini o'zlashtirish jarayonida ko'plab yangi aholi punktlari barpo etilganligi, ularga sovet mafkurasi ruhidagi nomlar qo'yilganligi, keyinchalik, Mustaqillik yillarida hukumat

qarorlari asosida o‘zgartirilganligi bilan tavsiflanadi. O‘z navbatida, Qanliko‘l, Qo‘ng‘irot, Taxiatosh va Xo‘jayli tumanlaridagi oykonimlarning paydo bo‘lish davri nisbatan ko‘proq sovet davridan oldin paydo bo‘lgan bo‘lsa ham, sovet va mustaqillik davrlarida paydo bo‘lgan nomlar ham hududiy oykonimik tizimlarida katta o‘rin tutganligini ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar

1. Административно-территориальное деление Союза ССР и список важнейших населенных пунктов. Издание 8-е. – М.: 1929. – 320 с.
2. Балтабаев О.О. Қорақалпоғистон Республикаси ойконимларининг ижтимоий-географик таҳлили. География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2022. – 45 б.
3. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том VIII. Казакская АССР. Киргизская АССР. – М.: 1928. – 256 с.
4. Материалы всесоюзной переписи населения 1926 г. В Узбекской ССР. Вып. I. – Самарканд: 1927. – 331 с.
5. Материалы по районированию Казакстана. Том. II. – Кзыл-Орда: 1928. – 196 с.
6. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.2. Территория и население Бухары и Хорезма. – Т.: 1926. – 140 с.
7. Охунов Н., Аҳмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона: Фарғона, 2010. – 128 б.
8. Список населенных мест. Узбекской ССР и Таджикской АССР. Выпуск VIII. Хорезмская область. – Самарканд: 1925. – 25 с.
9. Список населенных пунктов Узбекской ССР 1928 года. Часть I. – Самарканд: 1929. – 25 с.
10. Сыр-Дарьинская область. 1906 г. – Ташкент, 1907. – 287 с.
11. Топонимия Ближнего Зарубежья: 100 лет переименований. Атлас-справочник. / Науч. ред. В.Н.Калуцков; авт.: Т.И.Герасименко, Калуцков В.Н., Коломейцева О.В., Матасов В.М., Митин И.И., Морозова М.М., Святоха Н.Ю., Ямсков А.Н.. – М.: 2020. – 255 с.
12. Brenda S. A. Yeoh. Street Names in Colonial Singapore // Geographical Review. 1992. 82(3). Pp. 313-322. https://doi.org/10.2307/215354.
13. Hakimov Q., Toponimika. – T.: Mumtoz so‘z, 2016. – 368 b.
14. Light D. Street Names in Bucharest 1990-1997: Exploring the Modern Historical Geographies of Post-Socialist Change // Journal of Historical Geography. 2004. 30(1). Pp. 154-172. https://doi.org/10.1016/S0305-7488(02)00102-0.
15. Light D., Nicolae I., & Suditu B. Toponymy and the Communist city: Street names in Bucharest, 1948-1965 // GeoJournal. 2002. 56(2). Pp. 135–144. http://www.jstor.org/stable/41147676.
16. Mehmet Volkan Kaşikçi. The Soviet and the Post-Soviet: Street Names and National Discourse in Almaty // Europe-Asia Studies. 2019. 71(8). Pp. 1345-1366. https://doi.org/10.1080/09668136.2019.1641586.
17. Palonen E. The city-text in post-communist Budapest: street names, memorials, and the politics of commemoration // GeoJournal. 2008. 73. Pp. 219–230. https://doi.org/10.1007/s10708-008-9204-2.
18. Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.
19. Saparov A. The alteration of place names and construction of national identity in Soviet Armenia // Cahiers du monde russe. 2003. 44(1). Pp. 179-198. https://doi.org/10.4000/monderusse.8604.
20. Yom S.J., Cavallaro F. Colonialism and Toponyms in Singapore // Urban Science. 2020. 4(4). 64. https://doi.org/10.3390/urbansci4040064.

ISSN 2181-1296

